

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov</b> Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi.....	9
<b>A.A.Tolametov</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot.....	15
<b>I.R.Jumaniyazov</b> Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish.....	20
<b>Sh.I.Allamuratov</b> Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish.....	24
<b>N.M.O'rinova, M.I.Muxammadjonova</b> Xorijiy ta'limda tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari .....	30
<b>N.M.Merganova</b> Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish.....	36
<b>A.A.Tolametov, M.M.Baxromov</b> Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri.....	40
<b>Y.U.Egamberdiyeva</b> Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari .....	44
<b>A.Abdulayev, J.Abdullayev</b> Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri.....	52
<b>Q.Y.Nazirov</b> Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari.....	57
<b>T.T.Yusupov</b> Kurashchlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari .....	61
<b>B.B.Xaitbaeva, F.A.Alijonova</b> Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития.....	64
<b>O.N.Madaminov</b> Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi .....	71
<b>S.Muzafarova</b> Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari .....	74
<b>N.Sh.Urinova</b> Boshlang'ich ta'limda ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli .....	78
<b>D.D.Boymirzayeva</b> Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlar.....	83
<b>I.Ikromov</b> Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshdagilar uchun tuzish metodikasi.....	87
<b>E.Rahimov</b> O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari .....	94
<b>Sh.B.Bekchonova</b> Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirishga ta'siri .....	98
<b>Z.Y.Xamraqulov</b> Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari .....	101
<b>E.B.Nabiyev</b> Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati .....	107
<b>O.A.Василченко</b> Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера.....	111

**XORIY TADQIQOTLARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING YORITILISHI****ОСВЕЩЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ****HIGHLIGHTING THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING AMONG FUTURE TEACHERS IN FOREIGN STUDIES****Mirzaaxmedova Gulshanoy<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti  
**ORCID ID 0009-0009-2894-3282****Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti professori, p.f.d.**Annotatsiya**

Ushbu maqolada mualliflar bo'lajak o'qituvchilarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini xorij olimlarining tadqiqotlarida yoritilishini tahlil qilgan, analitik tafakkur tushunchasining mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy – nazariy asoslarda ochib bergan. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish, intellektual salohiyatini kuchaytirish, ma'naviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, axborotlar bilan ishlash malakasini mustahkamlash tendentsiyalarini ko'rsatib o'tgan. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda analitik tafakkurni shakllantirishning muhimligi asoslab berilgan, bugungi oliy ta'lim muassasalarida analitik tafakkurni rivojlantirishning mavjud holati va kamchiliklarni baratarf etish imkoniyatlari va yechim yo'llari tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlarning tadqiqotchilari tomonidan analitik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan texnologiyalar va modellarga batafsil to'xtalib o'tilgan hamda ularning ahamiyati va dolzarbligiga izoh berilgan. Analitik tafakkurni shakllantirish va taqqoslashtirish faqat amaliy faoliyatda yuzaga chiqadi. Talaba analitik tafakkurni shakllantirish haqidagi tavsiya va ko'rsatmalarni eshitish, ma'ruzalar tinglash bilan bunday qobiliyatga ega bo'lib qolmaydi. Haqiqiy o'quv malaka amaliyotida hosil bo'ladi. Talabalarda analitik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni analitik faoliyatga tayyorlash tashqi va ichki omillar uyg'unligida erishishni muhim o'rin tutadi. Indoneziyalik tadqiqotchilarning "PRBL" modeli talabalarda analitik faoliyat ehtiyojini o'yg'otish va bu jarayonni samarali tarzda amalga oshirish yo'llarini o'rgatadi. Modelning tarkibi bilan uni amalga oshirish bosqichlari orasidagi uyg'unlikka erishish talabalarni analitik faoliyatga tayyorlash samaradorligini ta'minlaydi.

**Аннотация**

В данной статье авторами проанализировано освещение технологии развития аналитического мышления у будущих педагогов в исследованиях зарубежных ученых, раскрыта сущность понятия аналитического мышления и его специфика на научно – теоретической основе. При этом выявлены тенденции развития аналитического мышления, укрепления интеллектуального потенциала, повышения духовно-идеологического иммунитета будущих педагогов, закрепления навыков работы с информацией. В статье обоснована важность формирования аналитического мышления у будущих педагогов, проанализировано текущее состояние развития аналитического мышления в современных высших учебных заведениях, а также возможности и пути решения задач по устранению недостатков. Подробно рассмотрены технологии и модели, разработанные учеными-исследователями зарубежных стран для развития аналитического мышления, а также дана оценка их значимости и актуальности. Формирование и сопоставление аналитического мышления происходит только в практической деятельности. Слушая рекомендации и инструкции по формированию аналитического мышления, слушая лекции, студент не приобретает такой способности. Реальная учебная квалификация формируется на практике. Важное значение приобретает использование интерактивных методов в формировании и развитии аналитического мышления у учащихся. Подготовка учащихся к аналитической деятельности занимает важное место в достижении гармонии внешних и внутренних факторов. Модель "PRBL" индонезийских исследователей учит студентов тому, как вызвать потребность в аналитической деятельности и эффективно реализовать этот процесс. Достижение гармонии между содержанием модели и этапами ее реализации обеспечивает эффективность подготовки учащихся к аналитической деятельности.

**Abstract**

In this article, the authors analyzed the coverage of the technology of developing analytical thinking among future teachers in the research of foreign scientists, revealed the essence of the concept of analytical thinking and its specificity on a scientific and theoretical basis. At the same time, trends in the development of analytical thinking, strengthening intellectual potential, increasing the spiritual and ideological immunity of future teachers, and consolidating

information skills are revealed. The article substantiates the importance of the formation of analytical thinking among future teachers, analyzes the current state of the development of analytical thinking in modern higher educational institutions, as well as the possibilities and ways of solving problems to eliminate shortcomings. The technologies and models developed by research scientists from foreign countries for the development of analytical thinking are considered in detail, and their significance and relevance are assessed. The formation and comparison of analytical thinking occurs only in practical activities. Listening to recommendations and instructions on the formation of analytical thinking, listening to lectures, the student does not acquire such an ability. Real academic qualifications are formed in practice. The use of interactive methods in the formation and development of analytical thinking among students is becoming important. Preparing students for analytical activities plays an important role in achieving harmony between external and internal factors. The "PRBL" model of Indonesian researchers teaches students how to create a need for analytical activity and effectively implement this process. Achieving harmony between the content of the model and the stages of its implementation ensures the effectiveness of preparing students for analytical activities.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, analitik tafakkur, mustaqil fikr, mulohaza, xulosa, nazariya, axborot, metodik talablar, ta'lim va tarbiya samaradorligi, innovatsion usul.

**Ключевые слова:** мышление, аналитическое мышление, самостоятельное мышление, суждение, вывод, теория, информация, методические требования, эффективность образования и обучения, инновационный метод.

**Key words:** thinking, analytical thinking, independent thinking, judgment, conclusion, theory, information, methodological requirements, effectiveness of education and training, innovative method.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyat ta'limni modernizatsiya qilish yo'lidan bormoqda, shu munosabat bilan oliy ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichini aniqlash dolzarbdir. Pedagogik ta'lim kasbiy tayyorgarlik tarkibida juda muhim o'rin tutadi, chunki bu butun ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy muvaffaqiyat omillaridan biridir. Zamonaviy yuqori texnologiyali axborot jamiyati o'qituvchiga yosh avlodni tarbiyalash va rivojlantirishga qodir shaxs va kasb egasi sifatida yangi talablarni qo'yimoqda. Ta'lim tashkilotlarida ro'y berayotgan innovatsion jarayonlarning paydo bo'lishi va shakllanishi kasbiy erkinlikni oshirish, o'qituvchi shaxsining ijodiy o'zini o'zi anglash, pedagogik merosga murojaat qilish tendentsiyasini rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirishning moslashuvchan tizimini yaratish zarurligini ko'rsatadi. Analitik ko'nikmalar kasbiy pedagogik kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, ular nafaqat tahlil qilish, balki axborotni sintez qilish, uni yangi yuqori nazariy darajaga ko'tarishdir. Analitik ko'nikmalar - bu pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan ko'nikmalari namoyon bo'ladigan va amaliyotdan bilimlar olinadigan bilim jarayonlari tizimi. Talabalarning axborot savodxonligini oshirish uchun axborot-tahlil ko'nikmalarini shakllantirish muammosi ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolganligi bejiz emas. Rivojlangan davlatlarda innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning tanqidiy fikrlash layoqatini mustahkamlash, intellektual salohiyatini kuchaytirish, ma'naviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, axborotlar bilan ishlash malakasini mustahkamlashga doir olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar soni tobora ko'paymoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalqaro tajribalarga muvofiq yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashda talabalarning analitik tafakkurini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Analitik ko'nikmalar kasbiy pedagogik kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat tahlil qiladi, balki axborotni sintezlab, uni yangi yuqori nazariy darajaga ko'taradi. Ayon bo'ladiki, metodika bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning tez va oson, ishonchli va natijali yo'llarini tadqiq hamda tadbir etishga qaratilgan pedagogik fandır. O'qitish jarayonida metod va usullardan, ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning shakli, miqdori emas, samaradorligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi natijasi birlamchi hisoblanadi. Ammo so'ngi paytlarda professor-o'qituvchilar orasida, matbuotda, radio-televidiniyada talabalarning o'zlashtirish darajasi emas, balki "falon metod bilan dars o'tilgani", "falon texnik vosita qo'llangani" muhimday bo'lib qoldi. Darslarning shakl tomoniga e'tibor haddan ziyod kuchayib, mustahkam bilim berish ortga surib qo'yilayotgani sezilmoqda. Shu sabab yaxshi dars deyilganda, uni "o'yin" tarzida tashkil etishni muhim sanaydiganlar soni ko'payib ketdi. Bu tashvishlanarli xolatdir. Zamonaviy ilg'or metodika talabada o'qish o'rganishga kuchli motivatsiya uyg'otish, uning tafakkurini harakatga keltirish, unda ongli analitik faoliyat ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutishi kerak[9; 66-b].

Analitik tafakkur har qanday insonda tanqidiy va tahliliy fikrlash fazilatini kuchaytiradi. Amerikalik yozuvchi Den Xarmonning "Hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun tanqidiy va analitik tafakkurni o'rganish kerak", - deganida jon bor[9; 65-b].

Yu.V.Kurnosov va P.Yu.Konotopovlarning "Analitika" kitobida: "Analitika, birinchi NBT, muammolarni amaliy hal etishga qaratilgan intellektual, mantiqiy fikirlashdir. Analitika yangi bilimlarga ega bo'lish uchun axborotni samarali ravishda qayta ishlashni taqazo etadi, optimal darajasi yaratish uchun axborot bazasini tayyorlashga imkon beradi, texnologik qo'llab quvvatlash tamoyillarini o'zaro muvofiqlashtiradi", - deyiladi. Bu fikrlardan analitik tahlilga tortilgan obyektning amaliy o'rganilishi, unga daxldor axborotlar jamlanib, boyitilib, qayta ishlanishi orqali yangi bilimlar hosil qilinishi ayon bo'ladi. Analitik tafakkur egalarining ish uslubi, fikrlash mahorati ingliz yozuvchisi Artur Konan Doyning "Sherlok Xolms haqida hikoyalar" [9;67-b] asari qahramoni Sherlok Xolms faoliyatida o'zining badiiy talqinini topgan. Sherlok Xolms sirli voqealar girdobiga kirib borar ekan sodir bo'lgan yoki yuz berishi kutilayotgan jinoyatni – muammoni har tomondan sinchiklab o'rganib, ishga aloqador barcha ma'lumotlarni yig'adi, qayta ishlaydi, hech bir narsa uning e'tiboridan chetda qolmaydi: tahlil, sintez umumlashtirish orqali mantiqiy fikr va xulosalarga keladi, eng maqbul mantiqiy qarorni qabul qiladi. Sherlok Xolms o'zi olib borayotgan jinoiy ishlarini, jumboqli voqealarni analitik tafakkur vositasida fosh qiladi, shu yo'l bilan g'alaba qozonadi.

AQSHning Shimoliy Karolina shtatida joylashgan Diyuka xususiy tadqiqot Universitetining falsafa fanlari doktori Alan Brikeland kishidagi analitik qobiliyatni aniqlash borasida quyidagi fikrni bildiradi: "Kimningdir analitik qobiliyatini sinab ko'rish uchun undan reklamadagi mantiqsizlikni ko'rib chiqish, biror hodisani qisimlarga bo'lib ularning o'zini to'g'ri, ketma-ketlikda joylashtirib chiqish yoki inshoni tanqidiy o'qib chiqishni so'rash mumkin. Odatda, analitik tafakkur qobiliyatini aniqlanayotgan sub'yektga biror muammo taqdim qilinib, undan yechim topishni so'rash mumkin" [9; 67-b].

Anglamladiki, analitik tafakkur yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar o'ta sinchkov, ziyarak, e'tiborli hamda bilimdon bo'ladilar. Oddiy bir yozuv, ish qog'ozi, reklama va e'londagi ko'pchilikning deyarli e'tiborini tortmaydigan, uslubiy xato, jadidlik, kichik bir mantiqsizlik ham ularning nazaridan chetta qolmaydi. Analitik fikr yurituvchi kishilar biror obyekt yoki predmetni tanqidiy o'rganib, tamom ila yangi mantiqiy fikr va xulosalar chiqara oladilar. Taraqqiy etayotgan har bir sohada analitik tafakkurga kuchli ehtiyoj seziladi. Jumladan, analitik tafakkur barcha ta'lim bosqichlarida adabiyot oqitishni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. S.K.Folomkina tomonidan qilingan o'qishning qanday maqsadda amalga oshirilishiga qarab, tanishish uchun o'qish, izlab o'qish, aniqlash uchun o'qish, bilish uchun o'qish tarzidagi tasnif maqul ko'riladi[9; 52-b].

### NATIJA VA MUHOKAMA

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda keltirilganidek "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"[4] muhim vazifa etib belgilanganligi yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, ularda analitik tafakkurni shakllantirish muammosi mamlakat siyosatining eng ustuvor vazifasi ekanligini anglatadi.

Bir guruh amerikalik olimlar tanqidiy-analitik fikrlash bilan ontologik jihatdan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarga e'tibor qaratilsa-da, undan kelib chiqadigan quyi darajadagi ko'nikmalar va qobiliyatlar sohasini hisobga olish kerak, - deb ta'kidlashmoqda. Masalan, noto'g'ri fikrlashning shakllanishi avtomatik tizimdan kelib chiqadi, bu noto'g'rilikni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan oqilona, boshqariladigan kognitiv tizimdan foydalanish zarur. Ushbu oxirgi tizim ijro etuvchi funktsiya (EF-executive function) deb ataladi, bu bizga tanqidiy fikrlash imkonini beradigan bir nechta ko'p qirrali tizimlardan biridir[11].

Amerikalik tadqiqotchilarning fikricha, tanqidiy-analitik fikrlashning asoslari neyrokognitiv qobiliyatlarning asosiy to'plamiga, ya'ni noyob neyron komponentlarga ega bo'lgan kognitiv jarayonlar to'plamiga asoslangan. Kognitiv rivojlanishning "neyrokonstruktivistik" hisobiga mos kelishi, bunda genlar, miya va atrof-muhitning dinamik o'zaro ta'siri vaqt o'tishi bilan kognitiv funktsiyalarning ko'pligini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tanqidiy-analitik fikrlashning yuqori darajadagi kognitiv qobiliyati ko'p komponentli tizimlarning muvaffaqiyatli rivojlanishining mahsulidir:

1. Fluid reasoning(mantiqiy fikrlash, muammolarga yechim topa olish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, noodatiy muhitga moslasha olish) tizimi tanqidiy-analitik fikrlashning


analitik komponentini induktiv va deduktiv asosda fikrlash va asosli xulosalar chiqarish uchun distal tushunchalarni bog'lashni o'z ichiga oladi.

2. Executive function (ijro etuvchi funktsiya) tizimi kognitiv jarayonlarimizni tartibga soladi, bu bizga bir nechta ma'lumotni ko'rib chiqishga va yuqori darajadagi fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan javoblarni noxolis javoblardan ajrata olish imkonini beradi.

3. Deklarativ xotira (deklarativ bilim deb ham ataladi) tizimi fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlari uchun muhim bo'lgan mavhum semantik tushunchalar va epizodik xotiralarni o'z ichiga olgan oldingi (kristallangan) bilimlarni saqlash va qayta tiklash imkonini beradi[11].

O'zbek pedagog olimi Abdulla Avloniy: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ngi darjada muxtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bo'g'liqdir"[9;66-b;], - deya ta'kidlaydi. Ulkan pedagogik tajriba egasining bu fikrlaridan talabalarda analitik tafakkurni takomillashtirishda ham pedagoglarning xizmati alohida o'rin tutishini anglash mumkin bo'ladi. Biroq talaba yoki o'quvchi analitik tafakkurni shakillantirish haqidagi tavsiya va ko'rsatmalarni shunchaki eshitishi, uzundan-uzoq ma'ruzalarni tinglashi bilangina bunday qobiliyatga ega bo'lib qolmaydi. Nazariy bilimlar amaliyotga yo'l ochadi ammo haqiqiy o'quv va malaka amaliyotda hosil bo'ladi. Analitik tafakkur uzviylik va ischillikda: Oilada, ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarishda, mustaqil ta'limda shakillanib, rivojlanib boradi. Analitik tafakkur qobiliyati fikrlash ustida tinimsiz shug'ullanish, izlanish hosilasidir.


Indoneziyaning Sebelas Maret Surakarta universiteti tadqiqotchilari o'z izlanishlarida, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan oqilona fikrlashdir,- deb ta'rif berishgan. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari elementlari quyidagilardan iborat: analitik, xulosa chiqarish, tushuntirish, baholash, o'z-o'zini tartibga solish va sharhlash. Analitik qobiliyatlar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining bir qismidir. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari XXI asr talabalarining talablari bo'lgan yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarining bir qismidir[10].



1-rasm. Analitik fikrlash – tanqidiy fikrlashning o'zagi

Indoneziya olimlari talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish uchun konseptual asos yaratishga qaratilgan model ishlab chiqishdi.


Muammoli ta'lim - PBL (Problem based learning) modeli fikrlash ko'nikmalarini, jumladan, analitik fikrlash ko'nikmalarini yaxshilashga yo'naltirilgan ta'lim modelidir [10]. PBL modeliga qo'shimcha ravishda, tadqiqotga asoslangan ta'lim (RBL- research-based learning) fikrlash qobiliyatlariga, ayniqsa, ilmiy kashfiyotlarga yo'naltirilgan o'rganish modelini ishlab chiqishdi. O'rganishdagi ilmiy faoliyat RBL modelini qabul qilishni o'z ichiga oladi. RBL modeli - bu ilmiy jarayonga ustuvor ahamiyat beradigan o'rganish modeli hisoblanadi va talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Talabalar RBL modeli bilan muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari, mavzu bo'yicha muhim bilim va tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin. PBL va RBL modelining kombinatsiyasi bo'lgan PRBL (problem and research-based learning) modeli sintaksisi 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. PRBL modeli sintaksisi ramkasi.

PRBL modeli PBL va RBL modellarining birikmasidir, masalan, birinchi bosqichda, yo'naltirish va muammoni shakllantirish jarayonni boshlashning birinchi qadamlaridir.

PBL sintaksisida bo'lgani kabi muammoga yo'naltirish modelning birinchi bosqichidir, ya'ni 1) o'quvchilarni muammolarga yo'naltirish, 2) talabalarni o'rganishni boshlashlarini tashkil etish, 3) mustaqil va guruhlarda tekshirishga yordam berish, 4) ishni taqdim etish va uni namoyish qilish, 5) amalga oshirilgan o'quv jarayonini tahlil qilish va baholash. O'rganishda PBL modelining sintaksisi qo'llaniladi, natija PBL modeli bilan o'rganish analitik fikrlash ko'nikmalarini yaxshilash uchun samarali hisoblanadi[10].



3-rasm. PBL model doirasining qisqacha mazmuni va uning ta'limga ta'siri.

RBL modelini qo'llashning bosqichlari quyidagilardan iborat: 1) muammoni shakllantirish; 2) adabiyotlarni ko'rib chiqish; 3) muammoni formulasini aniqlash; 4) tadqiqot faoliyatini rejalashtirish; 5) tadqiqotni o'tkazish, tekshiruvlar va ma'lumotlarni tahlil qilish; 6) tergov natijalarini tushuntirish; 7) hisobotlar va taqdimotlarni yaratish.

Ushbu tadqiqot talabalarining analitik fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirish uchun kontseptual asos yaratishga qaratilgan. Tadqiqotda foydalanilgan usul asosiy manba adabiyotlarni ko'rib chiqish edi. Adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tahrirlash, tartibga solish va natijalarni topish yo'li bilan yig'ildi va qayta ishlandi. Ushbu tadqiqotda ma'lumotlarni tahlil qilish o'rganilayotgan adabiyotlar mazmunini chuqur tahlil qilish uchun kontent tahlili edi. Ushbu tadqiqot natijalari

quyidagilardan iborat: 1)Fanni o'rganish modelining kontseptual asosi muammoli va tadqiqotga asoslangan ta'lim (PRBL) modeli deb ataladi; 2)Talabalarning analitik fikrlash ko'nikmalarini oshirish. Ushbu tadqiqot talabalarda PRBL modeli yordamida analitik fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirish imkonini beradi.

### XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarida analitik tafakkurni shakllantirish jarayonining mazmuni yoshlarni axborotni qabul qilish, tasniflash, qismlarga ajratish, solishtirish, qarama-qarshi qo'yish, tanqidiy yondashish, sabab-oqibat bog'lanishlari va mantiqiy mansublikni aniqlash orqali xulosaga kelishga qaratilgan ta'limiy tadbirlarni o'z ichiga oladi. Analitik fikrlash qobiliyatlari bugungi ilg'or texnologiya ish joyida, xususan, o'qituvchilik kasbida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, analitik fikrlash qobiliyatlari o'qituvchi yoki o'qituvchi stajyorlariga o'zgaruvchan tendensiya dunyosining tezkor axborot asrida mahlumot to'plash, ifodalash, tasavvur qilish va murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Demak, har bir davlat uchun analitik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilishni bilish, ijodiy va tashabbuskor fikrlash ko'nikmalarini yegallash, ko'p manbalardan bilim olishni, bilimlarni o'rganish va qurish qobiliyatiga ega bo'lgan kelajakdagi inson resurslarini rivojlantirish zaruriyati bo'lib qoladi. o'z-o'zidan bilim olish, o'z vaqtida o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish va dunyoning qiyinchiliklariga qarshi turishga tayyor bo'lish. Universitet talabalari analitik fikrlashni rivojlantirishlari kerak va ular nafaqat o'qiganlarini tushunishlari, balki uni ajratib olishlari, savol berishlari, baholashlari va baholashlari kerak. Analitik fikrlash g'oyalarni so'roq qilish va mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. Universitet talabalari o'zlari o'rganayotgan narsalarga chuqurroq qarashlari va uning katta rasm bilan aloqasi haqida o'ylashlari kerak. Ular o'z tanqidlarini va tuzilgan, aniq, asosli va qo'llabquvvatlanadigan tarzda taqdim yeta olishlari kerak.

O'qituvchilarning analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim, shunda ular analitik fikrlash ko'nikmalarini o'z tahlimini boshqarishda birlashtira oladilar. Hatto o'qituvchilar ham keng qamrovli treningdan o'tgan bo'lsa-da, ko'p marta o'qituvchilar analitik fikr yuritish uchun joylashadilar va to'g'ri yoki noto'g'ri javob ularning maktablarda yuqori harakatlanishiga tahsir qilishi mumkin. O'qituvchilar analitik fikrlash ko'nikmalarini, fikrlash jarayonini, boshqaruvni va vaziyatga qarama-qarshilikni o'qitishni o'z tahlimini boshqarishda qay darajada o'z ichiga olishi mumkin, shunda o'qituvchilar haqiqiy tajribadan saboq oladilar.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ivanov.P.I. Umumiy psixologiya.T.:1962.-492-b.
2. G'oziev E.Tafakkur psixologiyasi. Toshkent.: O'qituvchi.-1990. –B. 25. 6
3. Falsafa. Qomusiy lug'at.T.: Sharq.-2004
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. -T.; 2019 yil 8 oktyabr. Manba: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son.
5. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.// NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2020 yil 4-son. –B. 479.
6. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi. Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 4 , Article 89. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss4/89>
7. Shonazarov Q.R. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. Ped.fan. nomzodi. dis.-T.,:2003
8. Xodjaev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan.doktori dis.-T.,:2016
9. Hasanov Sh. Adabiy ta'lim jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Falsafa(PhD) dok. dis.-N.,:2020.
10. Suyatman<sup>1</sup>, Sulistyio Saputro<sup>2</sup>, Widha Sunarno<sup>3</sup> and Sukarmin<sup>3</sup> The Conceptual Framework for Problem and Research-Based Learning (PRBL) Model in Learning The Natural Sciences to Empower Students' Analytical Thinking Skills <https://iopscience.iop.org/journal/1742-6596>
11. **Donald J. Bolger, Allyson P. Mackey, Min Wang and Elena L. Grigorenko**The Role and Sources of Individual Differences in Critical-Analytic Thinking: a Capsule OverviewEducational Psychology Review [Vol. 26, No. 4, Special Issue: Seeking Common Ground: A Multidisciplinary Examination of Critical-Analytic Thinking in Learning and Development \(December 2014\)](#), pp. 495-518 (24 pages)